

## MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI RO'LI

*DTPIning pedagogika fakulteti  
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi  
1-bosqich talabasi  
Raximboyeva Muazzamxon Ximmat qizi  
Yo'ldosheva Aziza xujamuod qizi  
Ilmiy rahbar  
Turdiyeva Izzatoy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahalla institutining bola tarbiyasidagi o'rni, mahalla sub'ektining o'ziga xos xususiyatlari va O'zbekiston hududida mahallalarning ijtimoiy hayotdagi vazifalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, jamiyat, tarbiya maskani, mahalliy boshqaruv, mahalliy muommolar, mahalliy hokimiyat.

### KIRISH

Mahalla-(arabcha «mahalla»-joy, o'rin, makon)-O'zbekiston-ning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy bir-lik, uyushma. Mahalla o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim milliy ijtimoiy organi bo'lib, u o'zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko'rinishdagi shakli hamdir. Mahalla o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda izlab topgan va asrlar davomida takomillashtirib kelgan hayotiy amali-dir. Mahallalar aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishni yengil-lashtirishga chaqiradi.

Mahallalar 1917-yilgacha bo'lgan davrda juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyuştiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lib kelgan. Ammo shunga qaramasdan, sho'rolar davrida hukmron tuzum va mafkura mahallalarini rasman tan olmadi. Bi-roq, aholininh chuqur noroziligiga sabab bo'lmaslik uchun mahallalarini taqiqlab ham qo'ya olmadi, uni jamiyatni boshqarish tizimi-ga kiritmadи.

Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasida 2ta muhim ma-salaga e'tibor bermoq lozim.

Bular:

- 1.Mahalliy hokimiyat organlari
- 2.Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari

1.Mahalliy hokimiyat organlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-104-moddalariga muvofiq viloyatlar, tumanlar, va shaharlarda hamkorlik boshchilik qiladigan xalq deputatlari Ken-gashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab va vakolatlariga taalluqli ma-salalarni hal etadilar. 1993-yil 2-sentyabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» qonun qabul qilindi.

2.Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga binoan «Shahar-cha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalar-da hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zi-ni-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi». Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tarkibini fuqarolar yig'inlari, xususan mahal-lalar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'z-gardi. 1992-yil 12-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tuzish to'g'-risida»gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-oktabrda «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 480-sonli qarori qabul qilindi. 1992-yil Respublikada 8 mingga yaqin, Toshkentda 279 mahalla mavjud edi. 1993-1994-yillarda mamlakatimizda 12 mingdan ortiq mahalla qo'mitalari tuzildi. 2000-yilga kelib O'zbekistonda 13 mingdan ortiq, Toshkent shahrida esa 481 dan ko'proq mahalla faoliyat yurita boshladi. «Oila-mahalla-mak-tab» konsepsiysi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. Bu boshqa davlatlarda uchramaydigan noyob dasturdir.

Mahallalar o'zini-o'zi boshqaruv tizimida quyidagi ijtimoiy vazifa-larni, funksiyalarini bajarib kelmoqda:

1.Mahalla-onal maskan. Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir.

2.Mahalla-avvalo sog'lom ijtimoiy muhitdir. Prezidentimiz Islom Karimov tabiri bilan aytganda, mahalla haqiqiy demokratik dars-xonadir.

3.Mahalla- ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani.

4.Mahalla yoshlarni kasb-korga yo'naltiruvchi himoya hamdir.

5.Mahalla-tarbiya maskani. Bir bolaga yetti qo'shni ota-onal.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafa-qat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli ta-yanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqich-ma-bosqich amalga oshirildi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti bugungi kunda jamiyat va davlat ijtimoiy hayotining eng jo'shqin, faol, qaynoq va jonli mas-kaniga aylanib bormoqda. Yurtboshimiz mahallalarda to'planib qolgan muommolarni va kamchiliklarni samarali yechish, tinch-totuvlikni asrab-avaylash yo'lida barcha say-harakatlarni birlashti-rish kerakligini ta'kidladilar. Bundan ko'rinish turubdiki yurtimizda mahalla institutini rivojlanirish, qo'llab quvvatlash va moddiy ta'-minlash o'z samarasini bermoqda. Bundan rivojlanishlar va berila-yotgan e'tiborlar xalqimiz ko'ngliga xush kelmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishning huquqiy asoslari(mahallalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami). -T.;«Mahalla» hayriya jamg'armasi, 2003y
2. Shadmanova C, Axmedov T. Mahalla komissiyalari faoliyatida transformatsion jarayonlar// Demokratlashtirish va inson huquqlari.-N\_3.-2014y
- 3.<https://lex.uz/docs/3106223>.